



BO'LAJAK PEDAGOGLARNI KASBIY RIVOJLANISHIDA KOPERATSION(HAMKORLIK) YONDASHUVNING O'RNI VA AHAMIYATI

Qurbanova F.M.

*Andijon davlat pedagogika instituti Pedagogika fakulteti
Pedagogika va psixologiya kafedrasи o'qituvchisi*

Tayanch so'zlar: koperatsiya, kasbiy rivojlanish, individual darajada, pedagogik texnologiya, jamoa, birgalikkagi faoliyat, O'z-o'zini rivojlantirish .

Ключевые слова: сотрудничество, профессиональное развитие, индивидуальный уровень, педагогическая технология, коллектив, совместная деятельность, Саморазвитие.

Key words: cooperation, professional development, individual level, pedagogical technology, team, joint activity, Self-development.

Yurtimizda amalga oshirilayotgan ta'lim islohotlarining asosiy yo'nalishlaridan biri – bu har bir yosh avlodni har tomonlama yetuk, bilimli va, albatta, barkamol insonlar qilib tarbiyalash hisbolanadi. Albatta, barkamol inson deyilganda ma'naviy jihatdan yetuk, o'z Vatanining tarixi, buguni va kelajagi uchun qayg'uradigan hamda jamiyat taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shishi ishtiyoqida yonib yashaydigan shaxsni tarbiyalash bugungi kun talabiga hamohangdir. Ushbu tushunchaga tahliliy yondashilsa, uning naqadar serqirra, murakkab va har tomonlama umuminsoniy qadriyatlarga mos kelishini idrok etish mumkin. Aytish mumkinki, barkamol insonning shakllanishi, uning munosib kasbni egallashi, jamiyat taraqqiyoti uchun o'z hissasini munosib tarzda qo'shib yashashi va shu tufayli jamiyatda o'zligini anglashi, namoyon etishi, bir so'z bilan aytganda, har tomonlama yetuk shaxs sifatida kamol topishi nazarga olinadi. Komillik sari intilish shaxsning kasbiy shakllanishi bilan birgalikda, yaxlit holda kechadigan va deyarli bir umr davom etadigan murakkab jarayondir. Aniqroq aytganda, kasbiy shakllanish deyilganda, insonning o'z aqliy qobiliyatları, jismoniy imkoniyatlari, u yoki bu sohaga bo'lган layoqatlari, qiziqish va intilishlari, shuningdek, qadriyat va dunyoqarashlariga ko'ra biron bir kasb sohasiga oid ta'lim olishi, keyinchalik



shu sohaga kirishib, moslasha borishi va nihoyat, yillar davomida yetuk va malakali mutuxassis bo'lib yetishishi tushuniladi.

Jamiyatda o'zligini anglagan shaxs borki, u shu jamiyat a'zolariga manfaati tegadigan biror bir faoliyat turi bilan mashg'ul bo'lishi tabiiy hol xisoblanadi. Xalqimizni kasb – xunarni yomoni bo'lmaydi, degan maqolidan kelib chiqib ta'kidlashimiz mumkinki kasb – hunari orqali xalq e'tiboriga sazovor bo'lganlar haqida tariximizdan ko'plab misollar keltirish mumkin. O'z kasbini mohir ustasi sifatida faoliyat ko'rsatib kelayotgan shaxslar qatorida kasbidan zerikish hamda kasbidan sovish xolatlari ham uchrab turishi so'ngi vaqtarda ko'plab ijtimoiy fan vakillarini o'ziga jalb etib kelmoqda. Umumiy psixologiyani asosiy tarmoqlaridan biri xisoblanmish mehnat psixologiyasi yo'nalishida shaxs o'z faoliyatiga nisbatan ishtiyoqining so'nish jarayoniga alohida e'tibor qaratilib, turli yo'nalishda tadqiqotlar olib borilmoqda.

“Shaxsning kasbiy rivojlanishi” deganda, “o'sish, kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan shaxsiy fazilatlar va qobiliyatlar, kasbiy bilim va ko'nikmalarning shakllanishi, insonning ichki dunyosining faol sifat o'zgarishi, tubdan yangi tuzilishga olib kelishi tushuniladi. Hayot tarzi - kasbda ijodiy o'zini o'zi anglash”dir. Umuman olganda, “kasbiy rivojlanish” kontseptsiyasini ta'riflashga berilgan yondashuvlarni umumlashtirib, buni insonning ichki dunyosining faol o'zgarishi, kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning shakllanishi va rivojlanishi jarayoni deb tushunish kerak. Pedagogik faoliyatdagi shaxsning qobiliyatları va fazilatları, bu muvaffaqiyatlı ijodiy o'zini o'zi amalga oshirishga yordam beradi, o'qituvchi ma'lum bir ta'lim tashkilotida ishslash sharoitida o'z kasbiy faoliyatida shakllanib boradi.

Shaxsning mutaxassis sifatida shakllanish jarayoni xususida mualliflik qarashlari keltirilgan. Ilgari ishlab chiqilgan shaxsning mutaxassis sifatida shakllanishi yosh xususiyati va ish stajiga bog'liq degan qarashlardan farqli ravishda muallif tomonidan shaxsning kasbiy mahorati bu parametrlarning funksiyasi hisoblanmasligi, aksincha individning kasbiy shakllanishining qaysi bosqichida ekanligiga qarab aniqlanishini ko'rsatib bergen. Kasbiy faoliyatni turli darajada o'zlashtirgan mutaxassislardan haqidagi tasavvurlar, qolaversa, kasbiy shakllanish mezonlarining tavsifi keltirib o'tilgan.

Har bir ijtimoiy aloqalarning yana odamovilik va muloqotchanlik kabi kichik tiplarga bo'linishi biz uchun muhim ahamiyatga egadir. Birinchi tipda sub'ekt o'zini “topgan”, o'zida va faoliyatida o'zini o'zgartirishni hoxlamasligi bilan xarakterlanadi. Ikkinci tip esa sub'ektning o'zini-o'zi “qidirishi” bilan tavsiflanadi. Bu o'tish, oraliq holat hisoblanadi. Individ (yoki jamiyat) bir shaklni tark etib jamiyatning boshqa yuqori darajasiga erishadi.



Koperatsion (hamkorlikda) yondashuv vositasi orqali talabalarni kasbiy rivojlanishi kichik guruhlarda faoliyat olib borishi yoki o'quv vazifalari ustida birgalikda ishlashini o'z ichiga oladi. Guruh talabalari umumiylatijaga hissa qo'sha oladigan topshiriqlar ustida ishslashlari yoki umumiylatifi vazifani birgalikda bajarishlari mumkin. Ba'zi hamkorlikda o'rganishdagi yondashuvlari samaraliroq bo'lishi hamda hamkorlikni rivojlantirish uchun guruhlarni bir-biri bilan raqobatlashishini ta'minlaydi. Turli xil vazifalarni o'z ichiga olgan hamkorlikda o'rganishning juda keng yondashuvlari mavjud. Ular quyidagilardan iborat.

1. Hamkorlikdagi ta'limga yondashuvlari talabalarga ijobiy ta'sir ko'rsatadi va yutuqlarni oshirish uchun samarali yondashuv bo'ladi.

2. O'quvchilar hamkorlikda ishlash uchun qo'llab-quvvatlash va kasbiy amaliyot muhimdir. Bu o'z navbatida hamkorlikdagi ta'limga kasbiy rivojlanish faoliyatini samarali boshqarishga yordam beradi.

3. Talabalarni kopiratsion ishlashi samarali bo'lishi uchun ta'limga jarayoni rejali amalga oshirilishi kerak, aks holda ba'zi talabalar ishtirok etishda qiynalishi yoki mustaqil ravishda ishlashga harakat qilishi mumkin. Tizim samarali bo'lishi uchun barcha o'quvchilarning hamkorlikdagi vazifalarda gaplashishi va o'z fikrlarini ifoda etishini ta'minlash muhimdir.

4. Guruhlar o'rtasidagi raqobat o'quvchilarning birgalikdagi faoliyatini yanada samaraliroq qo'llab-quvvatlash uchun ishlatilishi mumkin. Biroq, raqobatga haddan tashqari e'tibor berish o'quvchilarni o'rganishda muvaffaqiyatga emas, balki g'alaba qozonishga qaratishi mumkin.

5. Eng istiqbolli hamkorlikdagi ta'limga yondashuvlari odatda 3 nafardandan 5 nafargacha talabalar guruhiга ega bo'lib, umumiylatija yoki maqsadga ega bo'ladi.

Hamkorlikdagi yondashuvlarning ta'limga ta'siri doimiy ravishda ijobiy bo'lib, o'quvchilar bir o'quv yili davomida o'rtacha 5 oylik qo'shimcha yutuqlarga erishadilar. Biroq, ta'sirning o'lchami har xil, shuning uchun tafsilotni to'g'ri olish muhimdir.

Hamkorlikda o'rganish turli xil yondashuvlarni tavsiflashi mumkin, ammo samarali hamkorlikda o'rganish talabalarni birga o'tirish va ulardan juftlik yoki guruhda ishlashni so'rashdan ko'ra ko'proq narsani talab qiladi; yaxshi ishlab chiqilgan vazifalar bilan tuzilgan yondashuvlar eng katta ta'limga yutuqlariga olib keladi.

Zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar va dinamik o'zgarishlar pedagoglarni yuqori darajada ta'limga jarayoniga tayyorgarligini talab qiladi. Ta'limga jarayonidagi professionallik, kasbga ijodiy yondashish, ijtimoiy-



professional faoliyat va qobiliyat doimiy rivojlanishni talab etadi. Yangi avlod o'qituvchilari zamон talablari, ehtiyojlarini qondirish uchun yuqori darajadagi nazariy va amaliy tayyorgarlikka ega bo'lishi bilan bir qatorda globallashgan jamiyat va zamonaviy talablar ham to'laqonli javob bera olishi ham kerak bo'ladi.

Guruхlar o'rtasidagi ishslash jarayoni raqobat yoki hamkorlikni qo'llab-quvvatlash bo'lishi mumkin. Ijobiy yondashuvlarning aksariyati o'quvchilar o'rtasida suhbat va o'zaro munosabatlarni rivojlantirishni o'z ichiga oladi.

Hamrohlikda yetakchi faoliyat «ta'lim oluvchining o'z ichki imkoniyatlarini yuzaga chiqarishda mustaqil faoliyat yuritish, o'zini kashf etishga yo'llash, o'quvchida bilim olishga majburiy emas, balki ongli ehtiyojni tarkib toptirish»ga yo'naltirilgan bo'ladi.

Koperativ yondashuvning har bir ishtirokchisi g'alaba qozonadi. Talabalar bir-birlariga qo'llab-quvvatlash ruhi bilan jamiyat qurishda yordam berishadi va har bir a'zosining ilmiy faoliyatini yaxshilashga hissa qo'shamdi. Guruhning barcha a'zolari bir-biriga yordam berishlari his-tuyg'ularning kuchayishiga va bu o'z navbatida o'z-o'zini hurmat qilish olib keladi. Ushbu ta'lim yondashuvida talabalar o'z kuchlarini guruhdagi do'starining sa'y-harakatlari bilan birlashtirishlari kerak, chunki buning mohiyati "Yo birgalikda g'alaba qozonamiz, yoki birga halok bo'lamiz" degan g'oyaviy yondashuv yotadi. Guruhlardagi talabaning muvaffaqiyat darjasini muhim emas, muvaffaqiyatga hissa qo'shish uchun hamma birgalikda harakat qilishi hamda ularning har biri qilayotgan ishiga ishonishi muhim hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy faoliyatga samarali tayyorgarlikni amalga oshirish, talabalarni koperatsion (hamkorlik) yondashuv orqali kasbiy bilim va ko'nikmalarni muvaffaqiyatli o'zlashtirishdagi asosiy omil kasbiy sifatlarni rivojlantirish masalasi tadqiqot doirasidagi muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Odatta bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga moslashtirishda ularning ob'ektiv imkoniyatlaridan kelib chiqib yondashish, tanlangan kasb va faoliyat talablariga shaxs imkoniyatlarining identifikasiyalashuvi maqsadga muvofiq sanaladi. Shu boisdan ham, bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy moslashtirishda masalaning mazkur jihatlarini nazariy asoslash va bo'lajak mutaxassislarning kasbiy imkoniyatlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Hozirgi kunga kelib dunyodagi deyarli barcha maktablarda, kollejlarda va universitetlar, barcha fanlar bo'yicha va barcha yoshdagи talabalarni hamkorlikda o'qitish keng qo'llanilib kelinmoqda[5]. Hozirda koperativ ta'limning barcha darajalarida umumiy va ko'pincha boshqa o'qitish usullariga afzallik beriladi.



Bo'lajak pedagoglarning kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish asosan o'qituvchilar o'z faoliyati jarayonida ibrat, namuna ko'rsatish bilan yoshlarning faolligini, his – tuyg'usini, hatti - harakatini rivojlantirishi va ta'sir eta olishi, har bir mashg'ulot uchun material tanlash, uni murakkablashtirish va oldingi hamda keyingilari bilan aloqasini ta'minlash, pedagogik jarayonni o'qituvchilar jamoasi va yoshlar bilan ishlashni qamrab olib, ta'limiy-tarbiyaviy vositalar majmuidan foydalangan holda rejalashtirishi shart.

Adabiyyotlar:

1. Hamroeva M. Yangi pedagogik texnologiyalarva pedagogik mahorat. – T.: 2005 53-b
2. G'oziyev E.G'. Oliy maktab psixosi. -T.: O'qituvchi, 1997. – 197 b. K.B.Qodirov "Kasb tanlashga tayyorlashning psixologik jihatlari va professional loyiҳalar" Toshkent, 2001. – 36 b.
3. Nishonova S. Ta'limni insonparvarlashtirish va kulturologiya masalalari. // «Xalq ta'limi», 2007, 4-son. –4-b.
4. Kagan M., Kagan S. Advanced cooperative learning: Playing with elements. San Juan Capistrano, CA: Kagan Cooperative Learning. 1992.
5. Johnson D. W., Johnson R. Learning together and alone: Cooperative, competitive, and individualistic learning (5th Ed.). Boston: Allyn& Bacon. 1999.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan bo'lajak pedagoglarni o'z kasblarini mohir ustasi va vatanimiz ravnaqiga munosib hissa qo'sha oladigan kadrlarni kasbiy rivojlanishida koperatsion yondashuvniga avfzallikkari, mazmuni va mohiyati yoritilgan. Tabalarda kasbiy rivojlanishda ularga to'siq bo'ladijan jixatlar o'r ganilib ularni bartaraf ertish usullari bilan tanishtirilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье освещены преимущества, содержание и сущность кооперативного подхода в профессиональном развитии будущих педагогов, обучающихся в высших учебных заведениях. Изучены препятствия профессиональному развитию и представлены методы их преодоления.

SUMMARY

In this article, the advantages, content and essence of the cooperative approach in the professional development of future pedagogues studying in higher educational institutions are highlighted. Obstacles to professional development were studied and methods of overcoming them were introduced.